

Bunda o'qituvchi she'rni aytib turib yozdiradi. O'quvchilar esa "xol-hol" so'zlarini to'gri qo'llash orqali "x" va "h" harflarining farqini bilib olib, imlo xatolarini tuzatishlari mumkin. Yuqoridagi she'rlarni yod olish bilan birga o'quvchilar nafaqt imlo qoidalarini o'rganadilar, balki tabiat, unda uchraydigan jonzotlar haqida ham ma'lumotga ega bo'ladilar. O'qish yoki ona tili darslarida fanlar aro bog'lanishli dars o'tishda ahamiyatga ega.

Nutq o'stirishning yana bir yo'li "paronimini top" deb nomlanadi. Masalan: ertak-ermak-erkak tarzida. Yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak, qish-tish; aniq-ariq; butun-tutun; bola-tola; keldi-ketdi kabi davom etaveramiz. Buni yana bir usul bilan ya'ni skannvordga o'xshagan usul bilan amalga oshirsak ham bo'ladi.

T
B

T

B
Q

Y
T

Bu mashq bolala B osh Q proq izlanish T gatadi. Yuqorida berilgan so'zlar ya'ni, osh, uloq, omon, so'zlar oldidan yana Q y'ib yangi m T fodalovchi so'z hosil qilish orqali lug'at boyligi va nutq o'stirish uchun vosita hisoblanadi.

Masalan, 1-sinf ona tili darslarida "avval nima bo'lgan edi?" so'rog'iga javob berish orqali yondashish mumkin. Bu quyidagicha bo'ladi: bir bola stol deydi, boshqa o'quvchilar davom etadilar. Stol- taxta- daraxt-nihol- urug'; mato-ip-tola-paxta-ko'sak-chigit; non-un-bug'doy; qog'oz-daraxt-urug'; shisha-qum; mayiz-uzum-go'ra kabi. O'yin shu tarzda davom etadi. Bunda o'quvchida nutq o'stirish bilan birga lug'at boyligi ham ortadi. Bunday mashqlar orqali o'quvchi mustaqil fikrlaydi va o'z fikrini erkin bayon qiladi. Og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi. Kutish orqali boshqalarni ham hurmat qilishni o'rganadi

Ta'lif bilan tarbiya uzviy bog'langan holda olib borilgani singari, quyidagi nutq o'stirish va lug'at boyligini oshirish mashqi orqali turli xil ijobiy, axloqiy fazilatlarni shakkantirish va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiya berishning ahamiyati kattadir. Masalan; o'qituvchi quyidagi so'zlarni aytish bilan birga ularning ma'nolarini ham izohlab o'tadi. Axloq-xulq; adabiyot-odob; ma'naviyat-ma'no; mehribonlik-mehr; donishmand-dono kabi. Bizning tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish bilan birga, lug'at boyliklari ham ortib boraveradi. Barcha ma'naviy, axloqiy fazilatlarning poydevori bolalikdan tarkib toptirilsagina, bu poydevor barqaror bo'ladi.

Tez va samarali harakat qilishga undaydigan mashqlardan yana biri bu, so'zlarning juftini topish bilan bog'liq. Jadvalda so'zlar jufti bilan bir qatorda berilmagan bo'ladi. O'quvchi ularni topib belgilashi kerak bo'ladi. Bu asosan 1-sinflar uchun mos keladi.

| | |
|--------|---------|
| S | Ino |
| ihat- | q |
| A | M |
| hil- | uruvvat |
| H | Sal |
| urmat- | omat |
| O | e'ti |
| dob- | bor |
| M | Oz |
| ehr- | oda |
| T | Ax |
| oza- | loq |

Chiroqli so'zlashni, to'g'ri yozishni, o'z fikrini aniq bayon qilishni bilmagan o'quvchi ma'lumotlani yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi mukammal, ravon bo'lsagina, fikrlash doirasi keng, tasavvur qilishi ham teran bo'ladi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SO'Z TURKUMLARINING O'RGANILISH TIZIMI

Nurova Firuza Kamolovna

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya. Ona tili ta'limida nazariy ma'lumotlarni o'quvchilarga o'rgatishda boshlang'ich va yuqori sinf darsliklarida ba'zi tafovutlar uchraydiki, mazkur kamchilik ularning o'zbek tilining imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishlariga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, bolalar uchun ancha salmoqlı hisoblangan "Fe'l so'z turkumi" mavzusini chuqur o'rganish ularning og'zaki va yozma nutqini

rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, fe’l, morfologik so‘roq, nutq, bilish imkoniyati, qo‘shma fe’l, ko‘makchi fe’l

Boshlang‘ich ta‘limda, eng avvalo, o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bilan boyitish kerak. Ayniqsa, yozma nutqni rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Nutqni rivojlantirishda so‘z turkumlarini o‘rgatishning ahamiyati katta. Og‘zaki nutqda so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash, yozma nutqda so‘zlarni imloviy jihatdan to‘g‘ri yozgan holda fikrlarini ravon ifoda etish mahorati bolalikdan shakllanadi. Zero, Mirzo Bedil aytganidek, Avval g‘ishtin qiyshi qo‘yarkan me’mor, Yulduzga yetsa ham qular bu devor. Bolalarning poydevori maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda qo‘yiladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarni ham o‘zining ta‘lim tizimi bilan lol qoldirayotgan Finlandiyada ham asosiy e’tibor maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limga qaratilgan. Buning natijasi esa o‘quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturlari orqali yaqqol ko‘zga tashlanyapti.

So‘z turkumlari boshlang‘ich sinflarda ancha osonlashtirilgan tarzda, ularning yoshi va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘rgatiladi. Ayniqsa, fe’l so‘z turkumi ustida ishlashda izchillik, bo‘limlar orasidagi bog‘lanish, dastur materialining hajmi, uni har sinfda o‘rganish usullari va vositalari shu so‘z turkumini o‘rganish vazifasi uning lingistik xusisiyatlarini va kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi. “Fe’l” mavzusini o‘rganishda asosiy vazifalar: so‘z turkumi sifatida fe’l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o‘quvchilar nutqini fe’llar bilan boyitish hamda og‘zaki va yozma nutqda fe’ldan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bo‘g‘liq holda ayrim orfografik qoidalarni o‘zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir – biri bilan bo‘g‘liq holda hal etiladi.

Fe’l ustida ishlashga tayyorgarlik savod o‘rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o‘quvchilarning diqqati fe’lning leksik ma’nosiga qaratiladi. Fe’l uchun tipik hisoblangan leksik grammatik ma’noni, ya’ni predmetning harakatini bildirishini umumlashtirish imkonini beradigan aniq manba yig‘iladi. Fe’l ustida ishlash mashqlarini “Alifbe” dagi so‘z va matnlarni o‘qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog‘lab o‘tkaziladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe’lni topishiga, so‘z nimani bildirishini va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko‘rib, gapni mazmuniga mos so‘zlar bilan to‘ldiradilar:

Bahorda daraxtlar nima qiladi? ... (gullaydi).

Kuzda mevalar nima qiladi? ... (pishadi).

Bolalar nima qilayaptilar? (dam olayaptilar). (ishlayaptilar).

Fe’lga so‘roq berishga o‘rgatish og‘zaki bo‘lmasligi, o‘quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, nima qildilar? Nima qiyaptilar? Nima qilmoqchilar? Kabi so‘roqlarga javob berishga o‘rgatish o‘z navbatida fe’l zamonlarini o‘rganishga tayyorlash demakdir.

I sinfda morfologik so‘roq so‘z nimani bildirishini (o‘rganishga tayyorlash demakdir) aniqlash maqsadida beriladi. O‘quvchilarni so‘zga so‘roq berishga so‘zlarni tanishga, so‘zni so‘roqqa mos ravishda o‘zgartirishga (nima qildi?) (o‘qidi). Nima qilamiz? O‘qiyimiz, nima qilmoqchi? O‘qimoqchi kabi o‘rgatiladi.

II sinfda fe’lni o‘rgatish. Bu boshqichning asosiy vazifasi “Fe’l – so‘z turkumi” degan tushunchalarni shakllantirish, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarning ma’nosini va shakliga qarab faqlash ko‘nikmasini hosil qilish, bo‘lishsizlik qo‘shimchasining talaffuzini va imlosini o‘rgatish hisoblanadi.

Dasturga ko‘ra, bu sinfda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar o‘rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun o‘qish darsida kimlar o‘qidi. Rahim ham o‘qidimi? Kim so‘zlatdi? Ravshan so‘zladimi? Ra’no kutubxonaga bordimi? Halima gapiryaptimi savollaridan ham foydalanadilar. Bunda o‘quvchilarga bo‘lishsizlik shakli -ma, emas, -gani yo‘q kabi vositalar yordamida ifodalaniishi tushuntirib o‘tiladi hamda buni bevosita o‘z nutqlarida qo‘llab ko‘radilar.

III sinfda fe’lni o‘rganish. Bu sinfda fe’lni o‘rganishning vazifasi:

1) fe’lning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi zamon qo‘shimchasi bilan o‘zgarishi haqida tushuncha berish va dastlabki ko‘nikma hosil qilish, fe’lning leksik ma’nolari, bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi, gapdagisi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2) nutqda fe’ldan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda sinonim va antonim fe’llardan, matn bilan bog‘liq holda o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilgan fe’llar bilan tanishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3) O‘tgan zamon qo‘shimchasining talaffuzi va yozilishi haqida ko‘nikma hosil qilish.

4) Qo‘shma fe’llar va ularning doim alohida yozilishi haqida tushuncha berish va dastlabki ko‘nikma hosil qilish hisoblanadi.

Bu mavzular o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Imloviy va nutqiy savodxon o‘quvchilarning jamiyatda o‘rin egallashi oson kechadi. Shuningdek, sifat, ot va son so‘z turkumlarining o‘tilishi ham bu samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, 4-sinf Ona tili darsligida berilgan ot so‘z turkumiga oid

egalik, kelishik qo'shimchalari haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarning orfografik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Nutq jarayonida tovush tushish, tovush, orttirilish hamda tovush almashinish hodisalari yuzasidan berilgan mashqlar, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rniда qo'llashga oid mashqlar bunga misol bo'la oladi:

Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchasini qo'yib ko'chiring.
Anvar bola chog'idan gulzor.. (-ning, -ni) yaxshi ko'rardi. Maxdum.. (-ni, -ning) oilasiga kelgach, bog'cha... (-ni, -ning) gulzor qismiga o'zi qaray boshladi. Gulzor.. (-ning, -ni) sug'orish, o'tlar...(-ning, -ni) yulish vazifalari.. (-ning, -ni) o'zi bajardi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir ta'lim yo'nalishi o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, egallagan bilimlarini amalda to'g'ri qo'llay oladigan har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Mana shu yo'lda og'ishmay harakat qilish ta'lim beruvchilarning pirovard maqsadi bo'lib qoladi.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili 4-sinf, O'qituvchi, Toshkent, 2017-yil
3. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, SH. Yo'ldosheva. Ona tili 3-sinf , O'qituvchi, Toshkent, 2016-yil

"ZARBULMASAL"- NASRIY HIKOYACHILIK ASOSIGA QURILGAN BADIA

BuxDU katta o`qituvchisi S.A.Qodirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Gulxaniy ijodiga mansub bo'lgan "Zarbulsal" asarining tarixi va o'tmishimiz ya`ni o'sha davrning muammolari masallar asosida ochib berilgan. Insonlar xarakteri hayvonlarga majoziy tarzda ko'chirilib, ular o'rtasidagi munosabat asosida o'sha davrning muhiti yaqqol ko'rindi. Asarning mazmuni, g`oyaviy yo'nalishi, bosh syujet yo`li, tarkibi, tili, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lum tasavvur hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: asar, sujet, mazmun, fikr, xarakter, qahramon, moziy, dialog

Abstract: In this article the author tried to explain the history of the great written work "Zarbulsal" by Gulxaniy and also gave facts about how Gulxaniy described and revealed the life problems of that period-the period of our past with the help of parables. The characters and manners of people were metaphorically transferred to animals and on the basis of the relationship between people the atmosphere of that time was obviously shown and revealed. The readers of this book can get certain information about the content of the written work, its ideological tendency, the way of the main plot, the composition, the language, the stylistic distinction of it and the work can give an unforgettable impression on people.

Key words: work(written work), plot(subject), content(meaning), idea, character(manner), hero, moral story, dialogue

Аннотация: В этой статье рассказывается об истории произведения Гульхани «Зарбулмасал» и проблемах нашего прошлого, то есть того времени, основанных на притчах. Нрав человека аллегорически переносится на животных, и, исходя из отношений между ними, и хорошо видна среда того времени. Формируется определенное представление о содержании, идеологическом направлении произведение, основном сюжете, композиции, языке, методологических особенностях.

Ключевые слова: произведение, сюжет, содержание, идея, характер, герой, история, диалог.

Janr xususiyatining murakkabligi, ya`ni uni na hikoya, na qissa, na masal, na hajviya deb alohida olingan biror adabiy janr qolipiga sig`dirib bo`lmasligining o'zi Zarbulmasalning originallik belgisidir. Asarda bu janr turlarining har biriga xos xususiyatlar, ifoda yo'llari (nasr, nazm, saj) aralashgan, qorishgan holda tiniq bir umumiy ohang yaratadi.

Adabiyot nazariyasiga oid ishlarda "Zarbulsal"ni "hajviy va humoristik qissa" deb ta'rifladilar.¹ Bizningcha, qissaning bu belgilari oldidan "majoziy" sifatini qo'shish kerak. Zarbulmasal – maqsadni majoz yo`li bilan ifodalashga qaratilgan hikoyatdir. Majoz bo`lganda ham, oddiy majoz emas, ko`p qavatli murakkab majoz bor bunda. Odam timsoli o'rniда qushlarning harakatda bo`lishi birinchi majoz bo`lsa, ular tilidan Xolvoqi Misgar, Yodgor po`stindo`z singari kishilarning, Tuya, Chayon, Sangpo`sht (Toshbaqa) singari hayvon-hasharot timsollarining har xil naql-rivoyatlar keltirib so`z yuritishi – ikkinchi majoz, bu timsollar

¹ Asrorov A.A. O'zbek va tojik hajviyotida janriy shakllar rang-barangligi (XVIII asr oxiri - XIX asr). Nomzodlik diss. avtoreferati, Samarqand, 1993, - B.16